

QALAMTASVIRDA RASM CHIZISHGA O’RGATISHNING NAZARIY ASOSLARI

Darmenov Janjayxan Abuovich-
Ajiniyoz nomidagi NDPI docenti
Dauletov Sultan Qudaybergenovich-
Ajiniyoz nomidagi NDPI magistranti

Annotatsiya: Maqolada bo‘lajak tasviriy san‘at o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlashda qalamtasvirda rasm chizishga o‘rgatishda uning nazariyasidan foydalanish, yorug‘, soya, perspektiva qonun qoidalari va tasvirni metodik ketma-ketlikda to‘g‘ri bajarish haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: tasviriy san‘at, qalamtasvir, akva, yorug‘, soya, perspektiva qonun qoidalari, kompozitsiya, buyumlarning nisbatlari.

Qalamtasvir boshqa san‘at turlari orasida mustaqil ravishda tugallangan dastgohli san‘at asari sifatida ham bo‘lishi mumkin. Tush, sangina, pastel, sous, qalam bilan bajarilgan ko‘plab kartinalar jahonning turli san‘at muzeyi va ko‘rgazmalaridan joy olgan.

Qalamtasvir mashg‘ulotlari ko‘rib-kuzatib buyumlarni to‘g‘ri tasvirlash, borliqni idrok etish, qo‘l, ong va sezgi organlarini shakllantirishda nafaqat bo‘lajak rassomga, balki turli kasb sohasidagi kishilarga zarurdir.

Qalamtasvir mashg‘ulotlari boshqa mutaxassislik fanlari qatorida bo‘lajak rassomlarni tayyorlashda asosiy mezon hisoblanadi. Qalamtasvir darslari oliy o‘quv yurtlari talabalariga nazariy va amaliy mashg‘ulotlar orqali olib boriladi. Amaliy mashg‘ulotlar qatorida nazariy bilimlar ham bo‘lajak rassomlarga ularning ijodiy faoliyatlarida muhim hisoblanadi.

Yoshlarga badiiy ma‘lumot berishda borliqni haqqoniy tasvirlash mashg‘ulotlari benihoya katta bo‘lib, ularning umumiy dunyoqarashlarini o‘stirishda muhim ahamiyatga ega. Realistik rasm chizish san‘ati, tabiatdagi shakllarni haqqoniy obrazlarda tasvirlash mahoratini rivojlantirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

Rasm chizishni o‘rganish yoshlarga atrofdagi jismlarning hajmini haqqoniy tasvirlash bilan birga, shakllar, ularning konstruktiv tuzilishi, buyumlarning nisbatlari, perspektiva qonunlarini nazariy jihatdan o‘rganishlaridan tashqari, ularning estetik didlarini o‘stirishda ham muhimdir.

Rasm chizish asoslarini o‘rganish, narsaning o‘ziga qarab bosqichma-bosqich tarzda tasvirlash prinsipida qurilgan.

Yosh-rassomlarga buyuk ijodkorlar va tasviriy san‘at sohasida ko‘plab nazariy va amaliy bilimlarni meros qilib qoldirgan atoqli metodist olim va rassomlarning




hayoti va ijodiy faoliyatlari bilan tanishtirish, asarlarini chuqur o‘rganish va ulardan nusxalar olish ham katta ahamiyatga ega.

Qalamtasvir mashg‘ulotlari badiiy o‘quv dargohlaridagi mutaxassis o‘quv fanlarining asosi sifatida bo‘lajak yosh rassom o‘quvchilarga quyidagi asosiy qonunlarni o‘rgatishni maqsad qilib qo‘yadi:

- a) Kompozitsiya asoslari.
- b) Chiziqli konstruktiv tuzilish.
- s) Buyumlarning nisbatlari.
- d) Perspektiva qonunlari.
- e) Bajarilayotgan tasvirdagi yorug‘ va soyalarning qonuniyatlari.
- f) Tasvirni metodik ketma-ketlikda to‘g‘ri bajarish

Misol tariqasida oddiy geometrik shakllardan tashkil etilgan kub va sharning tasvirini keltirish mumkin.

Bu ko‘nikma va malakalar yosh rassomning o‘quv dargohida bilim olish davomida o‘quv mashqlarini bajarish orqali rivojlanadi va takomillashib boradi. Ushbu bilimlar bo‘lajak yosh rassomning o‘quv dargohini tugatgandan so‘ng, ijodiy ish jarayonida ham muhimdir.



1-rasm

Tasvirlanayotgan buyumlar, ushbu buyumning qaysi tomonidan ko‘rinishidan qat’iy nazar (uzoqdan, yaqindan, yuqoridan, pastdan, to‘g‘ridan yoki chekkadan) chizuvchiga o‘zgarib ko‘rinadi. Masalan, kubni u yoki bu tomonga burib, uning tomonlarini chizuvchiga o‘zgarib ko‘rinishini kuzatamiz. Bu esa perspektiva qonuni hisoblanadi.

Buyumlarni tekislikda haqqoniy tasvirlashda rassom perspektiva qonuniga bevosita murojaat qiladi. Bu holatni shunday ta‘riflash mumkin: «Tabiatdagi barcha buyumlar qanday shaklga ega bo‘lmasin, perspektiv qonun va qoidalarga bo‘ysunadi».

Perspektiv qonunlarni mukammal o‘rganib olib, har qanday buyumning ko‘rinar va ko‘rinmas tomonlarini to‘g‘ri tasvirlash mumkin.



Perspektiva qonunlarining asosiy xususiyatlari shundaki, buyumlar qanday kattalikda bo’lmasin, chizuvchidan uzoqlashgan sari va tekislikda qanday joylashganiga qarab perspektiv qisqaradi.

Surat tekisligi deb tasvirlanayotgan natyurmort, manzara, portret va hokazolar bilan rassom orasidagi fazoga aytiladi.

Yorug’lik chizilayotgan buyumga tushib, rassomga uning shakli ko’rinadi. Shundan keyingina, rassom uni idrok etib tasvirlashga o’tadi. Surat tekisligi rassom bilan natura o’rtasidagi vosita bo’lib xizmat qiladi.

Buyum tekisligi deb tasvirlanayotgan buyumning joylashgan tekisligiga aytiladi. Buyum tekisligi vazifasida stol, pol, yer va boshqa chizish uchun bajarilgan moslama bo’lishi mumkin.

Ko’rish maydoni bu chizuvchining tasvirlanayotgan buyumni ko’rish vaqtida qamrab olishdir. Rassom tasvirlanayotgan ob’ektdan qanchalik uzoqlashib borsa uning maydoni ham kengayib boradi, bu esa tasvirlanayotgan ob’ektning hamma qismlarini aniq ko’rish va tasvirlashga imkon yaratadi. Ob’yektdan juda katta masofada turib, undagi hamma bo’laklarni va hajmlarni to’laqonli tasvirlash ancha qiyin. Aksincha, tasvirlanayotgan ob’yektga juda yaqin masofada turib ham, ushbu ob’ektdagi hamma qismlarni ko’z bilan ilg’ab olish mushkul.

Ufq chizig’i deb, ko’zimiz balandligidan o’tadigan nurga aytiladi. Buni aniqlash uchun qalamni olib uni gorizontol holatda ko’zimiz darajasigacha ko’tarib ufq chizig’ini aniqlashimiz mumkin. Buyum chizuvchiga uch holatda ko’rinishi mumkin (2 – rasm a,b.).

1. Ufq chizig’idan yuqorida.
2. Ufq chizig’idan pastda.
3. Ko’zimiz nuri balandligida (ufq chizig’i balandligi darajasida).

Ufq chizig’i har doim ko’zimiz nuri balandligidan o’tadi. Agar biz yuqoriga chiqsak u biz bilan ko’tariladi, pastga tushsak ufq chizig’i ham pastda kuzatiladi (3 - rasm a, b, v).



2 - rasm a,b,v.





3 – rasm a.b.

Yorug'lik deb- predmet yuzasiga tik tushuvchi quyosh yoki sun'iy yoritgichlarning buyum yuzasida tashkil etgan nurga aytiladi.

Soya – buyumlarning yoritilgan qismining orqasiga (teskarisiga) yorug'lik nurlari tushmagan yeriga aytiladi. Bunday soyalarni yana shaxsiy soya deb ham yuritiladi. Tasvirlar bajarishda tushuvchi soyalar ham kuzatiladi. Ushbu soyalar buyumlarning biri ikkinchisini to'sishi natijasida hosil bo'ladi. Ushbu soyalar buyum tekisligiga (stol, pol, yer va hokazo) hamda bajarilayotgan buyumlarning biridan ikkinchisiga ham tushishi mumkin. Buyumlarga qiyaroq (xiraroq) ravishda tushuvchi yorug'lik nuri ularda yarim soyalarni tashkil etadi. Yarim soyalar asosan yorug'lik va shaxsiy soyalar oralig'ida joylashadi. Shuning uchun buyumlardagi har qanday soyalar ham bir xil tusda bo'lavermaydi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, oddiy qalam bilan buyumni hajmi asosida tuslash, tasvirlanayotgan buyumlarni hajmdor bajarilishining omilidir. Pala-partish duch kelgan tomonga chiziqlar tortish qo'yilgan maqsadga erishishga to'sqinlik qiladi.

Buyumlarning hajmlarini bajarishda, chiziqlarni tortish ketma-ketligiga rioya qilish kerak. Qalamni qog'oz sirtida bir xil kuch bilan bosish va chiziqlar orasidagi masofaning teng bo'lishiga e'tibor berib tasvirlash, chizilayotgan buyumni to'g'ri bajarilishida katta ahamiyatga ega.

